SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 10 - oktabr 249-9-132-Q/22 Yangiyer shahar hokimligi

Yangiyer shahrida 2023-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y, 9-son, 320-modda)ning 6, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida Yangiyer shahar hokimi mavjud korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlarining ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan (2917 nafardan) 92 kishini tashkil etadigan 10 foiz miqdoridagi, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun 1,5 foiz (5 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim

olgan bitiruvchilar uchun 2,5 foiz (36 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 1 foiz (4 kishi);

nogironlar uchun 3 foiz (38 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0,5 foiz (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 1 foiz (4 kishi);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarning boshqa toifalari, odam savdosi qurbonlari uchun 0,5 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining zaxirasi belgilansin.

2. Qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha 2023-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxona va muassasalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun - mehnat sharoitlari bo‘yicha attestasiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan

belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operasiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olingan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari harakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rinlari hamda yuqorida ko‘rsatilgan barcha toifalar uchun mos sharoitlar yaratilishi lozim.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar:

ish joylarining eng kam miqdori (kvota) bo‘yicha ish o‘rinlarini tashkil etilganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni har chorakda;

ushbu o‘rinlarga ishga joylashganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni har oyning 25 sanasiga qadar shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga topshirsinlar.

ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan toifadagi shaxslarga maxsus ish joylari ajrata olmagan korxona va muassasalar ish joylarini ijaraga sotib olish yoki boshqa korxonalar bilan hamkorlikda tashkil etilsin.

5. Ish o‘rinlarini band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

qarorning 1-bandi 2-xat boshida ko‘rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar kesimidagi ish o‘rinlari ko‘rsatilgan holdagi miqdorda ilovaga muvofiq tashkil etilsin.

6. Tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlarini belgilangan muddatlarda va tartibda barpo etilishini ta’minlasinlar.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu

qaror bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

8. Ushbu qarorda belgilangan muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlarga:

muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun belgilangan ko‘rsatkichdan ortiqcha, shu jumladan ish uchastkalari (sehlar) tashkil etish uchun turar joy bo‘lmagan binolarni birinchi navbatda ajratish;

mahalliy davlat hokimiyatiga berilgan vakolatlar doirasida qonunda belgilangan tartibda boshqa imtiyozlar berilishi mumkinligi belgilansin.

9. Yangiyer shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi besh kunlik muddat ichida mazkur qarorni ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

10. Mazkur qaror rasmiy nashrda e’lon qilinsin.

11. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan shahar hokimining 2021-yil 24-sentyabrdagi № 49-9-132-Q/21-sonli qarori, 2023-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Nurmatov) hamda Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi rahbari (G‘.Sariev) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **O.Nosirov**

Yangiyer shahar hokimining
2022 yil 10 oktabrdagi
249-9-132-Q/22-son qaroriga
1-ilova

2023 yilda Yangiyer shahri bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish DASTURI

T/r	Korxona va tashkilotlar nomi	Topshiriq belgilangan korxonalar soni	Ularda ishlovchilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari soni JAMI	shu jumladan						
					Nogironlar uchun	Pensiya yoshiga yaqinlashib qolganlar	Yolg‘iz ota, onalar hamda 14 yoshgacha va nogiron bolaliklar	Ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar	Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Jazoni o‘tash muassasalaridan ozod etilganlar	Odam savdosidan jabr ko‘rganlar
1	SANITARIYA - EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BOSHQARMASINING YANGIYER SHAHAR BO'LIMI	1	43	**2**	1			1			
2	YANGIYER SHAHAR XALQ TA'LIMI BO'LIMI	1	36	**1**	1						
3	Yangiyer shahar tibbiyot birlashmasi	1	918	**11**	3	1	1	3	1	1	1
4	SIRDARYO VILOYATI F T I Z I A T R I Y A VA PULMONOLOGIYA MARKAZI	1	222	**7**	1	1	1	2	1	1	
5	Yangiyer tibbiyot kolleji	1	77	**3**	1		1	1			
6	YANGIYER MURUVVAT NOGIRONLIGI BO`LGAN SHAXSLAR UCHUN AYOLLAR INTERNAT UYI	1	96	**2**	1			1			
7	YANGIYER PEDAGOGIKA KOLLEJI	1	59	**2**	1			1			
8	SIRDARYO VILOYATI BOLALAR-O'SMIRLAR FUTBOL AKADEMIYASI	1	57	**2**	1			1			
9	YANGIYER SHAHAR BOLALAR-O`SMIRLAR SPORT MAKTABI	1	50	**1**	1						
10	"BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	1	22	**2**	1			1			
11	Madaniyat bo'limi-shahar madaniyat va aholi dam olish markazi	1	26	**2**	1			1			
12	4-son bolalar musiqa va san'at maktabi	1	61	**2**	1			1			
13	2-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	60	**2**	1			1			
14	8-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	79	**2**	1			1			
15	3-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	75	**2**	1			1			

16	5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	1	64	**2**	1			1			
17	7-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	68	**2**	1			1			
18	10-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	46	**2**	1			1			
19	11-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	1	45	**2**	1			1			
20	1-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	75	**2**	1			1			
21	6-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi	1	62	**2**	1			1			
22	shahar obodonlashtirish boshqarmasi	1	116	**7**	2	1	1	1	1	1	
23	"SHIRINTOY" nomli 6-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	83	**2**	1			1			
24	1-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	1	24	**2**	1			1			
25	5-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	32	**2**	1			1			
26	13-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	22	**2**	1			1			
27	9-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	22	**2**	1			1			
28	12-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	32	**2**	1			1			
29	3-maktabgacha ta'lim muassasasi	1	30	**2**	1			1			
30	4-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	42	**2**	1			1			
31	10-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	28	**2**	1			1			
32	11-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	25	**2**	1			1			
33	2-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	1	35	**2**	1			1			
34	"YANGIYER TEMIR-BETON KONSTRUKSIYALARI ZAVODI" unitar korxonasi	1	44	**4**	1		1	1		1	
35	TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI YANGIYER FILIALI	1	141	**4**	1	1		1	1		
Shahar bo‘yicha jami hammasi		**35**	**2917**	**92**	**38**	**4**	**5**	**36**	**4**	**4**	**1**

Yangiyer shahar hokimining
2022 yil 10 oktabrdagi
249-9-132-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha

ChEKLIST

Yo‘nalishlar	Korrupsiyaviy omillar	Javoblar				Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	So‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi			yo‘q		
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi			yo‘q		
	Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida ziddiyatlarning mavjudligi			yo‘q		
Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Diskretsion vakolatlarning kengligi			yo‘q		
	Aniq belgilanmagan vakolatlar			yo‘q		
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarning mavjudligi			yo‘q		
	Davlat organi tomonidan o‘zining vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi			yo‘q		
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi			yo‘q		
	Kechiktirib tartibga solish			yo‘q		
	Manfaatlar to‘qnashuvi			yo‘q		
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi			yo‘q		
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish			yo‘q		
	Huquq va majburiyatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar			yo‘q		
Ma’muriy tartib-taomillar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Ma’muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi			yo‘q		
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz o‘rnatilishi			yo‘q		
	Ortiqcha va asossiz talablarning o‘rnatilganligi			yo‘q		
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi			yo‘q		
	To‘lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi			yo‘q		
	Sanksiyalarning nomutanosibligi			yo‘q		
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi			yo‘q		
Nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi			yo‘q		
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi bo‘shliqlar			yo‘q		
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi			yo‘q		